

## **Uzoq muddatdagi ishga joylashish**

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi №1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirdari to'g'risida"gi va 2013-yil 23-maydagi №1971-sonli "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirdari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq Birinchi va Ikkinci ingliz filologiyasi fakultetlari negizida Ingliz tili birinchi, Ingliz tili ikkinchi, Ingliz tili uchinchi fakultetlar tashkil topdi.

Bugungi kunga kelib 3 ta ingliz fakultetlaridan 2020-2024- yil kesimida 6943 ta talaba bitirib, O'zbekiston va chet el mehnat bozoriga kirib kelgan . Ularning bandligini ta'minlash, mutaxassisligidan kelib chiqib ish o'rirlari yaratish hozirgi ustuvor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Sobiq bitiruvchilarimiz xalq ta'limi tizimida, maktabgacha ta'lim sohasida, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim tizimida, fan va tadqiqot sohasida, davlat boshqaruva organlarida, jamoat tashkilotlarida, servis xizmat ko'rsatish sohasida, mutaxassisligi bo'yicha tadbirkorlik faoliyatlarida ishlab kelmoqda.

2020-2021-yilda Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'naliшining birinchi va ikkinchi fakultetlarining jami bitiruvchilari 1743 tani tashkil qilgan. Shulardan, ingliz tili birinchi fakultetini 833 ta talaba bitirib shulardan 3 tasi chet el fuqorosi bo'lib 830 ta talaba ish bilan to'liq ta'minlangan bo'lsa, ingliz tili ikkinchi fakultetida esa 910 ta talaba fakultetni bitirib, shundan 6 tasi chetel fuqorosi bo'lib, 901 ta talaba doimiy muntazam ishiga ega bo'lган.

2021-2022-o'quv yilida Xorijiy til va adabiyot fakultetiga talab ko'payganligi sababli 3-fakultet ham tashkil etildi. Jami bitiruvchilar soni 1679 tani tashkil etdi. Ingliz tili birinchi fakultetini 573 nafar talaba bitirgan bo'lsa, 572 tasi ish bilan ta'minlandi. 1 nafari chet el fuqorosini tashkil etgam bo'lsa, ingliz tili ikkinchi fakultetini 566 ta talaba bo'lib, 1 nafari chetel fuqorosi hisoblanib, 565 tasi ish bilan ta'minlandi. 2021 yilning 26 avgustdagi 1-sun universitet kengashi qarori bilan "Ingliz tili uchinchi fakulteti" tashkil etildi. Shu o'quv yilining yakuni bo'yicha ingliz tili uchinchi fakultetida 540 talaba bitirgan shulardan 8 nafari chet el fuqorosi hisoblanib, 531 tasi muntazam ish bilan bandligi ta'minlandi.

2022-2023-yilda 3 ta Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'naliшining uch fakultetida bitiruvchilar soni 1791 tani tashkil etdi. Ingliz tili birinchi fakultetini 606 talaba bitirib, 1 nafari chetel fuqorosi hisoblanadi. Bitiruvchilarning 423 tasi ish bilan ta'minlandi. Ingliz tili ikkinchi fakultetini 683 nafar talaba bitirib shulardan 2 nafari chet el fuqorosi hisoblangangan. Bitiruvchilarning 626 tasi doimiy ish bilan

ta'minlandi. Ingliz tili uchinchi fakulteti 530 ta bitiruvchi bitirib, 1 nafari chet el fuqorosini tashkil etib, 467 ta bitiruvchi ish bilan to'liq ta'minlandi.

2023-2024-yilda Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'nalishi 1730 ta bitiruvchi bitirib, o'z mehnat faoliyatlarini boshladi. Shulardan, ingliz tili birinchi fakulteti 1-fakultetni 547 ta talaba bitirib 1 nafari chet el fuqorosini tashkil etdi. 547 talabadan 313 tasi bugungi kungacha ish bilan ta'minlandi. ingliz tili ikkinchi fakultetini 681 nafar talaba bitirib bugungi kungacha 328 ta talaba ish bilan ta'minlandi. Ingliz tili uchinchi fakultetini 502 nafar bitiruvchi bitirib, shundan bugungi kungacha 290 tasi ish bilan ta'minlandi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash, bitiruvchi talaba yoshlarning bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti.

Aynan universitetda bir qator xorijiy tillar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalar bugungi kunda xalqaro miqyosda turli jabhalarda faoliyat yuritishmoqda. Universitet bitiruvchilaridan yetuk chet tili o'qituvchilari, xalqaro tashkilotlar va turli qo'shma korxonalarda faoliyat olib borayotgan yetakchi mutaxassislarning borligi universitet nufuzi naqadar yuqori ekanligini ifodalaydi. Bitiruvchilarimiz Angliyaning Norwich tillarni o'qitish instituti, AQShning Webster universiteti, Germaniyaning Xeydelberg pedagogika universiteti va Rur Boxum universiteti, Fransiyaning Serji-Pontuas universiteti va Tuluza siyosiy fanlar instituti, Ispaniyaning Kadis universiteti, Valiodolit universiteti, Rossiyaning Adigey davlat universiteti, Astraxan davlat universiteti, Nijegorod davlat lingvistik universiteti, Kurgan davlat universiteti, Qozog'istonning Sh.Ualixanov nomidagi Ko'kshetov davlat universitetlari, G'arbiy Qozog'iston innovatsion-texnologiya universiteti, G'arbiy Qozog'iston davlat universiteti, Tojikistonning Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti, Rus-Tojik (Slavyan) universiteti Qirg'izistonning Qirg'iz-O'zbek universiteti, Turkmanistonning Davlatmamat Azadiy nomidagi Turkmanistonda o'z faoliyatlarini olib bormoqda.

**Marketing va talabalar amaliyoti  
bo'limi boshlig'i:**



**T.Ismailov**